



XALOS – XOLOS, ORA – ORO, QIMMAT – QIYMAT PARONIMLARI

Nafasova Nazira Turaevna,

Lecturer at the Department of Uzbek Linguistics, KARDU,
Ph.D. in philological sciences



Annotation.

The article analyzes the specific features of cost paronyms.

Key words:

Paronymy, paronymic relation, formal similarity of words.

Paronimlar o'zbek tilining o'ziga xos leksik birliklaridir. Paronimlar ikki leksik birlikning tovush o'xshashligi, talaffuz yaqinligi, ma'noviy noo'xshashligi, lekin ma'noviy jihatdan ham bir-biriga daxldorligi, bir-biridan tamomila uzilib ketmaganligi, ma'noviy noo'xshashlik tagida tarixiy yoki sinxron aloqadorlik sezilar-sezilmas holda ekanligi, paronimik munosabatning ancha nozik lisoniy munosabatligi paronimlarning til leksikasida alohida leksemalar guruhi, to'plami ekanligidan dalolat beradi. Tilning nafosati, nafisligi, leksemalar asosidagi ma'noviy noziklik har bir leksemaning lisoniy nazokatini, salohiyat va imkoniyatini maxsus o'rganishni talab qiladi.

Aytilishi va tovush ifodasi yaqin, uyqash bo'lgan so'zlar tilda katta mavqega ega. Bu holat ona tilimizning o'ziga xos mo'jizaviy imkoniyati va qodirligi bilan izohlanadi. Tildagi so'zlarning nodirligi shundaki, ularning ko'pchiligi bir, ba'zan ikki tovush (harf) bilan bir-biridan o'zgalanadi. Bu fazilat, asosan, bir yoki ikki bo'g'inli – ikki, uch, to'rt, besh, olti tovush (harf)li so'zlarga xos. Ana shunday so'zlar juftligidan, o'xshashlilardan bir *xalos* – *xolos* so'zlaridir. Bu so'zlar birinchi bo'g'inda *a* – *o* tovushlari bilan tafovutlanadi. Qolgan to'rt tovushi aynan bir xil. O'xshashlik to'rt tovushda, noo'xshashlik – bir tovushda. Lekin ma'nolari tubdan ayriqcha. Arab tilidan o'tgan *xalos* – qutilish, ozod bo'lish; iloj, najot. Narsa maqomidagi tushunchani bildiradi. *Xolos* so'zi ham arab tiliga mansub. O'tmishda tilimizga o'zlashgan. *Xolos* so'zi mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas. Turkum jihatidan so'z yuklama. Ona tilimizda bor-yo'g'i, faqat, faqatgina kabi ma'nolarda qo'llanadi. So'zlashayotgan voqeaga, fikrga, hukmga so'zlovchining munosabatini anglatadi. *Xolos* yuklama so'z, asosan, nutq egasining taajjub, hayrat, ajablanish, ta'kid, uqtirish, qaydlov kabi munosabatlarini ifodalashga xoslangan. *Xolos* so'zi asosiy fikr, hukm anglatgan gapdan ajratib aytiladi. Kichik to'xtamdan so'ng *xolos* so'zi keladi. O'zi alohida urg'u va ohang kuchlanishi bilan talaffuz qilinadi. Ana, *xolos*, pishdi gilos. *Xolos* so'z yuklama ushbu gapning o'rtasida kelgan, har ikki tomonidan vergul bilan ajratilgan. *Xolos* so'zi gap oxiri va o'rtasida keladi, hamisha vergul, undov belgisi va nuqta bilan ajratiladi. Ohangi ham shunga yarasha bo'ladi. *Xalos* uyqash so'z bilan og'zaki va yozma nutqda ana shu fazilatlari bilan tafovutlanadi.

So'zlarning shakliy o'xshashligi va uyqashligi badiiy asarlarda katta ijtimoiy vazifa bajarishi barcha ijodkorlarga ma'lum: tovush uyg'unligi yuzaga keladi, qofiya yaratiladi, jarangdorlik va ohangdorlik paydo bo'ladi, hijo va turoqlarning shakllanishida tayanch vazifasini o'taydi, vazniy uyg'unlik paydo bo'ladi. Ana shunday so'zlar jumlasiga *ora* va *oro* kalimalari kiradi. *Ora* – o'zbekcha, *oro* – fors-tojikcha so'z. Bu ikki so'z tarkibidagi *a* – *o* tovushlari bilan farqli. Ma'nolari esa jiddiy farqli: *ora* – ikki narsa yoki nuqta, makon o'rtasidagi masofa. Umuman, bu so'zda masofa, mazgil,

chegara va shunga o'xshash ma'no mujassam. Oro – zeb, bezak, zebo, zebolanish, bezaklanish, bezanish. Bu so'z, asosan, odamlarga nisbatan qo'llanadi. Xususan, xotin-qizlarning bezanishi, taranishiga nisbatan *oro bermoq* iborasi bo'lgan. Bu holatni *ora bermoq* tarzida ifodalash mumkin emas. Biron narsa, oraliq masofaga nisbatan ham *ora bermoq* deb bo'lmaydi. Tarkibidagi *a – o* tovushlarining uyqashligi, talaffuzi yaqinligi, *oro* so'zining kam qo'llanishi, ko'pchilikka notanishligi tufayli bu so'zlarni yanglish, chalkash qo'llash hollari uchraydi.

Qimmat – *qiymat* so'z juftliklari ham birinchi bo'g'in oxiridagi *m – y* tovush (harf)lari bilan tafovutli. Boshqa qismlari o'zaro o'xshash. Ana shu o'xshashlik asosida bu so'zlarni almashtirib, adashtirib ishlatish hollari ham yozma, ham og'zaki nutqimizda uchraydi. Ko'pincha *qiymat* (tannarx, tovar narxi, narx, baho, qadr, o'rin, ahamiyat) so'zi o'rnida *qimmat* (narxi baland, katta pul bilan baholanadigan; bebaho, qadrli, aziz; pulga sotib olib bo'lmaydigan; mavqe, ahamiyat darajasi) qo'llanishi an'anaga aylanib borayotganligi ma'lum. *Qiymat* so'zi narsa, tushuncha bildiradi. *Qimmat* so'zi belgi, fazilat, xususiyat, alomat ma'nosini bildirishga xoslangan. Ikkalasi ikki turkumga mansub: *qiymat* – ot, *qimmat* – sifat. Bu ikki so'zni alishtirib ishlatish, asosan, og'zaki nutqda ko'p uchraydi.

Paronimlarning lisoniy tabiatidagi noziklik, ular tabiatiga xos ko'p qirralilik (fonetik, ma'noviy, yasalish, qo'llanish, o'zga guruh leksemalarga o'xshamaslik, genetik bir tillilik yo turli tillilik, bir xil grammatik tuzilishda bo'lishlik, yasovchilarning ma'nosi va shaklidagi yaqinlik, juftlik tarzida qo'llanmaslik, xatoga yo'l qo'yishlik ...) tilshunoslikda izchil o'rganilmasligiga imkon yaratganki, paronimlar haqida maxsus, ommabop va zaruriy bilimga ega bo'lish davr talabiga aylandi. Chunki paronimlar – til leksik boyligining bir sohasi va yo'nalishi. Shu bois paronimlarni bilish nutq madaniyatiga erishishning bir yo'li bo'lib qoldi. *Qulp – qulf, omixta – omuxta, shaxt – shahd, erli – erlik, yog'li – yog'liq, (bir) yoqli – yog'li, alpoz(da) – alfoz, o'tkazmoq – o'tqazmoq, abzal – afzal, azim – azm, adil – adl, alam – a'lam, ora – oro, ariq – oriq, asil – asl, axir – oxir, oxir – oxur, ahil – ahl, bank – banka, bop – bob, sop – sof, bot – bod, burch – burj, ganj – ganch, davr – davur – dovur, dafina – dafna, dahma – dahna, yetmoq – yitmoq, eltmoq – etmoq, yonilg'i – yoqilg'i, yoriq – yorug', yoq – yog', jazlik – jazliq, jo – joy, ziyorat – zirak, kavsh – kovsh – kovush, kompaniya – kompaniya, kompot – kompost, kuy – ko'y, ko'klik – ko'hlik, mavhum – mafhum, sutxo'r – sudxo'r, mashoq – mashshoq, murabba – murabbo, mahal – mahol, xalos – xolos, nasha – nash'a, otalik – otaliq, paqir – faqir, ravon – rovon, salmoq – solmoq, suvoq – shuvoq, tambur – tanbur, teri – tire kabi ko'plab paronimlarni qo'llashdagi nutqiy xatoliklar paronimik ta'limga alohida e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун дарслик. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –188 б.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. – 464 б.
3. Ўзбек тилининг изохли луғати. 1–5-жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.